



**XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING
QARORI**

2024-yil 7-avgust

VI-94-84-11-155-K/24

Dang‘ara tumani

**Dang‘ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak ijrosi
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 165-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori 11-bandi ijrosini ta‘minlash hamda Dang‘ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak ijrosi yuzasidan Dang‘ara tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining hisobotini tinglab, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dang‘ara tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i K.Latipovning Dang‘ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak ijrosi to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Dang‘ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak ijrosi to‘g‘risidagi hisobot tasdiqlansin.

Bunga ko‘ra:

Dang‘ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak mahalliy byudjet daromadlari 21,4 mlrd.so‘m va mahalliy byudjet harajatlarining kiritilgan o‘zgartirishlar bilan birga 124,5 mlrd.so‘m miqdoridagi ijrosi ma‘qullansin.

Jumladan;

Dang‘ara tuman mahalliy byudjeti harajatlarining 2024-yil 2-choragi uchun byudjet daromadlarining aniqlashtirilgan prognoz ko‘rsatkichlari 21,4 mlrd.so‘mni tashkil etib, amalda 21,4 mlrd.so‘mga (100%)ga, ya‘ni 8,7 mln so‘mga ortig‘i bilan bajarildi.

2-chorak daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan 8,7 mln so‘m mablag‘ning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 aprel kungi «Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha fo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida»gi Qaroriga asosan 2,6 mln.so'm hamda boshqa harajatlar uchun 6,0 mln.so'm mablag' ajratilsin.

3. Dang'ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak uchun tasdiqlangan xarajatlari yoyilmasiga kiritilgan o'zgarishlar bilan aniqlangan rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Dang'ara tuman hokimligi hamda mas'ul tashkilotlar byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (K.Latipov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov), tegishli tashkilotlar hamda tumandagi byudjet mablag'lari taqsimlovchilar bilan birgalikda xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi to'g'risida har chorakda axborot berib borilishini ta'minlasin.

6. Quyidagilar:

-soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazani to'liq qamrab olish, soliqlar yig'ilishi darajasini oshirish, mavjud zaxiralarni safarbar etish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali tegishli byudjet daromatlari prognozining bajarilishini ta'minlash;

-byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni tejash, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan foydalanishning natijadorligi bo'yicha hisobdorlik tizimini kuchaytirish;

-birinchi navbatda moliyalashtiriladigan (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar) xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va kreditor qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat soliq xizmati organlari rahbarlari byudjet daromadi prognoz ko'rsatkichlarini ortiqcha to'langan va undirilgan soliq summalari hisobiga bajarilishiga yo'l qo'ymasliklari bo'yicha qat'iy ogohlantirilganligi alohida ko'rsatib o'tilsin.

7. tuman hokimligi O'zbekiston Respublikasining «Byudjet kodeksi»ning:

-28-moddasida belgilangan **byudjet sohasidagi vakolatlaridan** kelib chiqib, Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatilishini;

-126-moddasida mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar tegishli ravishda tuman Kengashi tomonidan, hokimlikning takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilinishi;

-favqulodda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag'lar to'g'risida mahalliy Kengashlarga hisobot berish sharti bilan qo'shimcha manbalarni yo'naltirish bo'yicha qarorlar qabul qilishi belgilanganligini nazarda tutsin.

8. Tumandagi byudjet mablag'lari taqsimlovchilari va byudjet mablag'lari oluvchilar byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ajratilayotgan mablag'lardan

maqsadli foydalanish hamda byudjet mablagʻlari boshqarilishi va byudjet hisobi yuritilishini taʼminlash boʻyicha shaxsan javobgarlik belgilanganligini nazarda tutsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashining
2024-yil 7-avgustdagi
VI-94-84-11-155-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Dang'ara tumani mahalliy byudjetdan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasiga 2024-yil 1-iyul holatiga
Farg'ona viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi bilan kelishilgan taqdimnoma hamda byudjet tashkilotlari so'roviga asosan
kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida**

MA'LUMOT

(ming so'm)

№	Mahalliy byudjetlar hamda byudjetdan mablag' oluvchilar nomi	Umumiy hajmi	Kiritilgan o'zgartirish miqdori (foizda, %)	2024- yilda jami	shu jumladan			
					1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak

1	"Dangara tumani Xokimligi"	2 605 467	10,8%	280 759,0	250 800	29 959	0	0
2	"Dangara tumani Kambagallikni qisqartirish va bandlik bulimi"	1 533 171	-0,8%	-12 968,0	0	-12 968	0	0
3	"Dangara tumani bolalar va osmirlar sport maktabi"	3 838 338	0,0%	0,0	0	0	0	0
4	"Dangara tumani Madaniyat va turizm bulimi(aparat)"	107 802	0,0%	0,0	0	0	0	0
5	"Dangara tumani Iqtisodiyot va Moliya bulimi"	2 268 277	10,1%	230 096,0	94 000	136 096	0	0
6	"Dangara tuman Irrigatsiya bulimi"	351 130	-14,3%	-50 195,4	0	-50 195	0	0
7	"Dangara tumani 27-sonli bolalar musika va san'at maktabi"	2 663 456	1,0%	27 527,0	20 106	7 421	0	0
8	"Dangara tumani Axborot-kutubxona markazi"	630 493	0,0%	0,0	0	0	0	0
9	"Dangara tumani Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi"	3 434 701	-0,6%	-22 000,0	0	-22 000	0	0
10	"Dangara tumani Tibbiyot birlashmasi"	87 428 322	-0,9%	-753 260,0	260 303	-1 013 563	0	0
11	"Dangara tumani Obodonlashtirish boshkarmasi"	11 401 934	12,4%	1 410 116,0	70 000	1 340 116	0	0
12	"Dangara tumani Xalk ta'limi bulimi"	39 542 135	-0,7%	-264 956,0	12 102	-277 058	0	0

13	"Dangara tumani Yeshlar ishlari agentligi"	4 954 924	0,8%	41 996,0	0	41 996	0	0
14	Oila va xotin kizlar bulimi	3 031 386	2,2%	65 373,0	0	65 373	0	0
15	"Dangara tumani Veterinariya bulimi"	1 916 959	2,6%	50 460,0	0	50 460	0	0
16	"Dangara tumani Fermer xujaliklariga buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazi"	491 215	0,0%	0,0	0	0	0	0
17	"Dangara tumani xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi"	364 028	-0,8%	-2 800,0	0	-2 800	0	0
	JAMI	0	x	1 392 047,6	1 037 614	464 361	0	0